
G'aniyev Shuhrat Madaminovich



Farg'ona viloyat hokimi

tel: 0(373) 244 70 70

e-mail: hokim@ferghana.uz

Fuqarolarni qabul qilish kunlari:

2012 yil 14 dekabrda: Farg'ona viloyat hokimi

Tug'ilgan yili: 11.09.1968 y.

Tug'ilgan joyi: Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri

Millati: O'zbek

Partiyaviyligi: Yo'q

Ma'lumoti: Oliy

Tamomlagan: 1992 y. Toshkent davlat agrar universiteti

2005 y. Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Davlat mukofoti bilan taqdirlanganmi: yo'q

Xalq deputatlari respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosi:

2015 y. - h.v. - xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputati

2015 y. - h.v. - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi

1985-1987 yy. - Toshkent qishloq xo'jaligi instituti talabasi

1987-1989 yy. - Harbiy xizmatda

1989-1996 yy. - Farg'ona viloyati matlubot birlashmasi Marg'ilon bazasi etakchi mutaxassisi

1996-2000 yy. - Marg'ilon tumanlararo «Agrokimyota'minot» aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining o'rinbosari, boshqaruvi raisi

2000-2001 yy. - Farg'ona viloyati «Agrokimyota'minot» aksiyadorlik birlashmasi boshqaruvi raisi

2001-2002 yy. - Farg'ona viloyati «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik birlashmasi boshqaruvi raisi

2002-2004 yy. - «O'zqishloqxo'jalikkimyo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisining o'rinbosari

2004-2007 yy. - «O'zkimyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisining o'rinbosari

2007-2008 yy. - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari masalalari axborot-tahlil departamentining mudiri

2008-2011 yy. - Farg'ona viloyati hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari

2011-2012 yy. - Farg'ona viloyati hokimi vazifasini bajaruvchisi

2012 y. - h.v. - Farg'ona viloyati hokimi

Vazifalari

Viloyatda vakillik va ijroiya hokimiyatning boshqaruvchisi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi rasmiy vakili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgan vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi.

Hududiy boshqaruv organlari, shahar va tumanlar hokimliklari faoliyatiga umumiy rahbarlikni hamda ular tomonidan Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tuzilmalarini shakllantirish va faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi. Vakillik va ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning jamoat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Davlat, xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy qurilish hamda kadrlarni tanlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yish masalalari bilan shaxsan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlarining ijrosini, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni tashkil etadi.

O'ziga berilgan vakolatlar va amaldagi Qonunlar doirasida viloyatdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi.

Viloyat hokimining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyasini chaqiradi, sessiyalarga raislik qiladi, kun tartibiga kiritiladigan masalalarni taklif qiladi.

Kengash hujjatlariga imzo qo'yadi va tasdiqlaydi. Respublika davlat hokimiyati organlari bilan munosabatlarda viloyat hokimligi manfaatlarini ifodalaydi, shuningdek Respublika davlat va ho'jalik boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

2017-05-16 19:03:21